# O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari[1]

*2026-yil yanvar-sentabr oylari bo‘yicha dastlabki ma’lumot*

I. Aholining umumiy daromadlari to‘g‘risida ma’lumot
II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi
IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o‘sish sur’ati va ulushi
V. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati va ulushi
VI. Transfertlardan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati va ulushi
VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi
VIII. Aholining umumiy daromadlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

## I. Aholining umumiy daromadlari to‘g‘risida ma’lumot

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari 1 026,7 trln so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko‘rsatkichlaridan biri – iste’mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste’mol narxlari o‘zgarishi ta’siri chiqarib tashlanganda, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati **108,1 %**ni tashkil etdi.

**Aholining umumiy daromadlari**

*2026-yil yanvar-sentabr*

| | Hajmi | Nominal o‘sish sur’ati, % da | Real o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|---|
| Aholining umumiy daromadlari, *trln so‘m* | 1 026,7 | 115,3 | 108,1 |
| Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, *mln so‘m* | 26,1 | 113,2 | 106,2 |

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar **26,1** mln so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘sish sur’ati **113,2 %**ni va real o‘sish sur’ati **106,2 %**ni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

Aholi umumiy daromadlari hajmi (choraklik)
Aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi (choraklik)
Aholi jon boshiga umumiy daromadlari real o‘sish sur’atlari (choraklik)
Aholi umumiy daromadlari real o‘sish sur’atlari (choraklik)

[1] *Ushbu va keyingi o‘rinlarda 2025-yil yanvar–sentabr oylari bo‘yicha ma’lumotlar qayta hisoblangan. 2026-yil va 2025-yil ma’lumotlarida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari inobatga olingan.*

## II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromadlar bo‘yicha Toshkent shahrida (**68 092,8** ming so‘m), Navoiy (**34 442,1** ming so‘m) va Buxoro (**29 618,7** ming so‘m) viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**18 446,9** ming so‘m) hamda Namangan (**18 732,5** ming so‘m), Sirdaryo (**18 780,3** ming so‘m), Surxondaryo (**20 760,0** ming so‘m), Farg‘ona (**20 946,9** ming so‘m), Qashqadaryo (**21 097,5** ming so‘m), Jizzax (**21 365,4** ming so‘m), Andijon (**22 431,4** ming so‘m), Samarqand (**22 674,8** ming so‘m), Toshkent (**23 288,6** ming so‘m) va Xorazm (**24 810,6** ming so‘m) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha o‘rtacha respublika darajasidan quyi ko‘rsatkichlar qayd etildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi**
*2026-yil yanvar-sentabr*

| Hududlar | Hajmi, ming so‘m | Real o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **26 138,4** | **106,2** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 18 446,9 | 107,6 |
| Andijon viloyati | 22 431,4 | 104,0 |
| Buxoro viloyati | 29 618,7 | 104,2 |
| Jizzax viloyati | 21 365,4 | 106,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 21 097,5 | 102,2 |
| Navoiy viloyati | 34 442,1 | 107,4 |
| Namangan viloyati | 18 732,5 | 104,1 |
| Samarqand viloyati | 22 674,8 | 104,6 |
| Surxondaryo viloyati | 20 760,0 | 102,6 |
| Sirdaryo viloyati | 18 780,3 | 103,2 |
| Toshkent viloyati | 23 288,6 | 108,4 |
| Farg‘ona viloyati | 20 946,9 | 103,6 |
| Xorazm viloyati | 24 810,6 | 101,3 |
| Toshkent shahri | 68 092,8 | 113,0 |


Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o‘sishi Toshkent shahrida (**13,0 %**), Toshkent viloyatida (**8,4 %**) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**7,6 %**) va Navoiy viloyatida (**7,4 %**) kuzatildi.

Shu bilan birga Jizzax (**6,1 %**), Samarqand (**4,6 %**), Buxoro (**4,2 %**), Namangan (**4,1 %**), Andijon (**4,0 %**), Farg‘ona (**3,6 %**), Sirdaryo (**3,2 %**), Surxondaryo (**2,6 %**), Qashqadaryo (**2,2 %**) va Xorazm (**1,3 %**) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘sish sur’atlari o‘rtacha respublika darajasidan past bo‘ldi.

## III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (jami aholi umumiy daromadlarining **62,4 %**i)dan shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi **8,3 %**, mulkiy daromadlarning ulushi **3,6 %**, transfertlardan olingan daromadlar ulushi **25,7 %**ni tashkil qildi.

**O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi**[1]
*2026-yil yanvar-sentabr*




Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi
Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning ulushi
Aholi umumiy daromadlari tarkibida mulkiy daromadlarning ulushi
Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi


Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (78,5 %) kuzatildi. Aksincha, mazkur ulush Buxoro viloyatida va Toshkent shahrida hamda Andijon, Farg‘ona, Xorazm, Samarqand viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan past bo‘ldi.

[1] *Aholini va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari inobatga olingan holda hisoblangan.*

Respublika bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mulkiy daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo‘lmasa-da, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi **22,6 %**ni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Andijon, Xorazm, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan **30 %**dan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad ulushi eng past, ya’ni **13,0 %**ni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi**
*2026-yil yanvar-sentabr*




## IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o‘sish sur’ati va ulushi

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari **26,4 %**ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o‘sish sur’ati **125,8 %**ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **6,2** foiz punktga o‘sishini ta’minladi.

**Yollanma ishchilar daromadlarining o‘sish sur’ati va ulushi**

*2026-yil yanvar-sentabr*

| Hududlar | Yollanma ishchilar daromadlarining o‘sish sur’ati, % da | Umumiy daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi, % da |
|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **125,8** | **26,4** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 124,5 | 25,3 |
| Andijon viloyati | 119,3 | 18,8 |
| Buxoro viloyati | 118,6 | 17,6 |
| Jizzax viloyati | 125,5 | 21,8 |
| Qashqadaryo viloyati | 119,6 | 16,4 |
| Navoiy viloyati | 124,2 | 41,4 |
| Namangan viloyati | 121,0 | 18,4 |
| Samarqand viloyati | 121,4 | 15,7 |
| Surxondaryo viloyati | 119,2 | 15,5 |
| Sirdaryo viloyati | 117,4 | 27,8 |
| Toshkent viloyati | 125,1 | 27,8 |
| Farg‘ona viloyati | 119,8 | 17,8 |
| Xorazm viloyati | 120,0 | 16,9 |
| Toshkent shahri | 133,0 | 48,1 |

## V. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati va ulushi

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati **115,3** %ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,5** foiz punktga o‘sishini ta’minladi. Hududlarda mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida **54,6** %ni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘sish sur’ati esa **115,1** %ni tashkil etdi.

Xuddi shunday Surxondaryo viloyatida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar ulushi **50,0** %ni va o‘sish sur’ati **115,5** %ni hamda Qashqadaryo viloyatida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar ulushi **47,5** %ni va o‘sish sur’ati **111,5** %ni tashkil etdi.

**Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati va ulushi**
*2026-yil yanvar-sentabr*

| Hududlar | Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati, % da | Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning ulushi, % da |
|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **115,3** | **36,0** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 114,3 | 37,6 |
| Andijon viloyati | 116,7 | 39,8 |
| Buxoro viloyati | 114,3 | 42,9 |
| Jizzax viloyati | 115,1 | 54,6 |
| Qashqadaryo viloyati | 111,5 | 47,5 |
| Navoiy viloyati | 111,4 | 37,1 |
| Namangan viloyati | 115,9 | 44,1 |
| Samarqand viloyati | 114,1 | 38,3 |
| Surxondaryo viloyati | 115,5 | 50,0 |
| Sirdaryo viloyati | 111,4 | 41,2 |
| Toshkent viloyati | 115,8 | 46,4 |
| Farg‘ona viloyati | 116,1 | 39,5 |
| Xorazm viloyati | 115,8 | 38,3 |
| Toshkent shahri | 123,7 | 11,8 |

## VI. Transfertlardan olingan daromadlarning o‘sish sur’ati va ulushi

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o‘z ichiga oladi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylari ma’lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘sish sur’ati **105,9 %**ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **25,7 %**ga teng bo‘ldi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning **30,7 %**ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar, **69,3 %**ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko‘p ulush – **84,6 %**ni, nafaqalar **13,5 %**ni, stipendiyalar **1,9 %**ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalarining ulushi **17,8 %**ni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha umumiy daromadlar tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining ulushi**

*2026-yil yanvar-sentabr*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 27,2 % | Namangan viloyati | 19,7 % |
| Xorazm viloyati | 26,9 % | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 15,6 % |
| Samarqand viloyati | 24,8 % | Toshkent shahri | 13,1 % |
| Farg‘ona viloyati | 24,6 % | Sirdaryo viloyati | 11,9 % |
| Buxoro viloyati | 22,0 % | Jizzax viloyati | 7,5 % |
| Surxondaryo viloyati | 20,8 % | Toshkent viloyati | 4,7 % |
| Qashqadaryo viloyati | 20,2 % | Navoiy viloyati | 4,6 % |


## VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi

2026-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **60,7 %**ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (**69,6 %**), Surxondaryo (**66,4 %**), Toshkent (**66,2 %**), Qashqadaryo (**65,6 %**), Buxoro (**65,5 %**), Samarqand (**65,2 %**), Namangan (**64,7 %**), Xorazm (**63,4 %**) va Farg‘ona (**62,9 %**) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi. Toshkent shahrida (**50,3 %**) va Navoiy viloyatida (**50,2 %**) mazkur ko‘rsatkich ellik foizdan biroz yuqori bo‘ldi.

**Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi**

*2026-yil yanvar-sentabr*




Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi (hududlar bo‘yicha)

## VIII. Aholining umumiy daromadlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

**Aholining umumiy daromadlari** doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda, uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

**Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda** Milliy statistika qo‘mitasi hisoboti ma’lumotlaridan, shuningdek, statistika organlari tomonidan muntazam ravishda o‘tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar hamda Jahon banki tomonidan tavsiya etilgan metodologiya asosida olingan uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvi ma’lumotlaridan, bundan tashqari Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Markaziy bank, Xalq banki, Soliq qo‘mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to‘lovlar va soliq to‘lovlari to‘g‘risidagi umumlashgan ma’lumotlardan foydalaniladi. Hisob-kitoblarda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari ham inobatga olingan.

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromad qoidaga ko‘ra – “birlamchi daromad” va “transfertlardan olingan daromadlar”ga bo‘linadi, bu o‘z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta’minot tizimiga bog‘liq holda institutsional o‘zgarishlarning ta’sirini kuzatish imkonini beradi.

Metama’lumot uchun havola:
Aholi umumiy daromadlari
Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari

Tayyorlash uchun mas’ul:
*Aholi turmush darajasi statistikasi va kambag‘allikni baholash boshqarmasi*

Manzil: *100170, Toshkent sh. Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63-uy*
Bog‘lanish uchun: *info@stat.uz*
*Tel.: 71-203-80-00 (12-61)*